

Curiosity marsoxodi Mars sayyorasida juda uzun zanjirli organik molekulalarni topdi

// 21.05.2025

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/curiosity-marsoxodi-mars-sayyorasida-juda-uzun-zanjirli-orga>



NASAning Curiosity marsaxodi Mars yuzasida hozirgacha aniqlangan eng uzun zanjirli organik molekulalar mavjudligini aniqladi. NASA tomonidan yaqinda e'lon qilingan hisobotda bir paytlar ko'l bo'lgan Geyl krateridagi Kumberlend deb nomlangan cho'qqidan olingan tosh namunasi tahlili haqida so'z boradi.

Tadqiqotda marsoxodga o'rnatilgan o'ziga xos kimyoviy laboratoriyadagi SAM (Sample Analysis at Mars) uskunasidan foydalanildi. Uning yordamida esa to'plangan materialning termokimyoviy tahlili o'tkazildi. Namunani isitish orqali tadqiqotchilar uchta organik molekula bilan bog'liq signallarni aniqlashgan: dekan, undekan va dodekan.

Bular uzun zanjirli alkanlar, ya'ni faqat uzun chiziqli ketma-ketlikda joylashgan uglerod va vodorod atomlaridan tashkil topgan molekulalardir.

Ma'lumki, Yerda bu molekulalar hujayra membranalarining muhim tarkibiy qismlari bo'lgan yog' kislotalari parchalanishining qo'shimcha mahsuloti sifatida uchraydi.

Ularning Marsda aniqlanishi biologik kelib chiqishini anglatmaydi, balki sayyorada barqaror suyuq suv uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lgan davrda ibtidoiy Mars muhiti erishgan kimyoviy murakkablikning

muhim dalilidir.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati